



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY TARAQQIYOT
VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI
B U Y R U Q**

“23” 12 2020-yil.

№ 66

Toshkent sh.

**O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish
vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashini tuzish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 4-iyuldagi PQ-3837-son hamda “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2020-yil 26-martdagi PQ-4653-son qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashini tashkil etish va uning tarkibi 1-ilovaga muvofiq shakllantirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to‘g‘risida Nizom 2-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining yig‘ilishlarida normativ-huquqiy va idoraviy hujjatlarni muhokama qilish bo‘yicha I yarim yillik uchun tadbirlar rejasi 3-ilovaga muvofiq, tasdiqlansin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi (keyingi o‘rinlarda – Jamoatchilik kengashi) o‘z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.

4. Quyidagilar Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari etib belgilansin:

Qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta‘minlash, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga

oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni bajarish bo'yicha Vazirlik va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

birgalikda muloqot qilish, Vazirlikning nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun Vazirlikni fuqarolar bilan bog'lab turadigan "ko'prik" rolini bajarish;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan Vazirlikning faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jumladan ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazish;

Vazirlik faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o'tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash;

Vazirlik faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Vazirlik faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish va ularni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Vazirlik faoliyati bo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Vazirlik xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha muammolarni kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.

5. Jamoatchilik kengashiga quyidagi huquqlar berilsin:

Vazirlik tomonidan tashkil etiladigan bo'lajak ochiq Hay'at majlislari va boshqa ommaviy tadbirlar to'g'risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda ishtirok etish;

Vazirlikning, jumladan uning hududiy bo'linmalari va tasarrufidagi tashkilotlarining binolari (xonalari) va boshqa obyektlarini Vazirlik tomonidan belgilangan tartibda borib ko'rish;

Vazirlik, uning hududiy bo'linmalari va tasarrufidagi tashkilotlari rahbarlariga Jamoatchilik kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

Vazirlik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan Vazirlikning axborotlari, statistika va boshqa materiallarini belgilangan tartibda olish;

Vazirlikning qonun ijodkorligi faoliyatida, Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik va ekspertlar muhokamasini ta'minlashda ishtirok etish;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlariga Vazirlik tomonidan berilgan javoblarning sifatini tanlab olgan holda tahlil qilish;

Vazirlik xodimlarining roziligi bilan ularning uy-joy, ijtimoiy-maishiy va xizmat shart-sharoitlari bilan tanishish;

Jamoatchilik kengashi majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish.

6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashlarini tuzish to'g'risida" 2019-yil 27-martdagi 27-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Axborot xizmati Jamoatchilik kengashi tarkibi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to'g'risida Nizomni Vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

8. Devonxona mazkur buyruqni Vazirlik markaziy apparati, hududiy boshqarmalar, tizimdagi tashkilotlarga yetkazsin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirining birinchi o'rinbosari S.Xolxo'jayev zimmasiga yuklansin.

Vazir



D. Kuchkarov

**Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashining tarkibi**

T/r	F.I.O.	Lavozimi	Telefoni	Elektron manzili
O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi				
1	Ochilov Sherzod Ubaydullayevich	MTRK bo'lim boshlig'i	(71) 214-98-07 (90) 370-71-08	sherzod@mtrk.uz
O'zbekiston "Agropar soxa ayollari" uyushmasi raisi NNT				
2	Axmedjonova Adiba Komiljonovna	Bo'lim boshlig'i	(90) 944-46-44	axmedjanova.agrowomen@gmail.com
O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi				
3	Toshpo'latov Farhod Murodovich	Raisning o'rinbosari	(97) 469-77-76	info@chamber.uz
Prognozlash va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti				
4	Tursun Muhitovich Axmedov	Direktor o'rinbosari	(71) 244-01-45 (97) 727-04-38	info@ifmr.uz
Iqtisodiyot vazirligining sobiq xodimi, faxriy				
5	Yakubova Marhabad Mahmudovna	Nafaqaxo'r	(93) 566-40-11	Мавжуд эмас
"El E'zoz Mebel" MChJ				
6	Kasimov Abdug'ani Xabirovich	Korxonat ta'sischi	(91) 163-72-34 (71) 150-15-25	info@comodo.uz
"Jo'rabek Laboratoriyes" QK MChJ				
7	Saipov Aziz Alisherovich	Bo'lim boshlig'i	(71) 231-02-09	saipov.a@jurabek.uz
Sog'liqni saqlash vazirligi				
8	Xolmurodov Botir Burxoniddinovich	Boshqarma boshlig'i	(71) 241-32-32	botir.xolmurodov@ssv.uz
Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi				
9	Saparboev Bekmurodbek Sherzod o'g'li	Bo'lim boshlig'i	(93) 569-69-64 (71) 232-63-00	bsaparbaev@mineconomy.uz

**O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni
qisqartirish vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 4-iyuldagi PQ-3837-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va Vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashining (keyingi o'rinlarda – Jamoatchilik kengashi) asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Jamoatchilik kengashi o'z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.

3. Jamoatchilik kengashining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

4. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

**2-bob. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari, funksiyalari,
huquqlari va majburiyatlari**

5. Quyidagilar Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta'minlash, Vazirlik zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni bajarish bo'yicha Vazirlik va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

birgalikda muloqot qilish, Vazirlikning nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan

samarali hamkorligini ta'minlash uchun Vazirlikni fuqarolar bilan bog'lab turadigan ko'prik rolini bajarish;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan Vazirlikning faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, sotsiologik so'rovlar, jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazish;

Vazirlik faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o'tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash;

Vazirlik faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Vazirlik faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish va ularni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Vazirlik faoliyati bo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Vazirlik xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha muammolarni kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.

6. Jamoatchilik kengashi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Vazirlikning faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslari hamda murojaatlarini ko'rib chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, ularni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Vazirlikka tegishli takliflar kiritadi;

Vazirlikning fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorligini tahlil qiladi, shuningdek, hamkorlikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

Vazirlik faoliyatiga taalluqli uning normativ-huquqiy hujjatlari va qarorlarini takomillashtirish, ulardagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, shuningdek, kiritilgan takliflarni mazkur Vazirlik xodimlari o'rtasida muhokama qilishga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etishda qatnashadi;

davlat dasturlari loyihalarini, tadbirlar rejalarini va Vazirlik faoliyatiga taalluqli, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi boshqa hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar tayyorlaydi, qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolatlari doirasida ishtirok etadi, bajarilgan ishlarning samaradorligini tahlil qiladi, shuningdek, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

Vazirlik rahbarlari va xodimlarining fuqarolar bilan uchrashuvlarini, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq ishlarni tashkil etishda, shu jumladan joylarga borib tashkil etishda qatnashadi, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring o'tkazadi;

Vazirlik xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini yaxshilashda, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish muammolarini hal etishda ko'maklashadi;

xodimlar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilish masalalari bo'yicha xodimlar o'rtasida keng tushuntirish ishlarini tashkil etadi;

Vazirlikda, uning hududiy bo'linmalarida va tasarrufidagi tashkilotlarida sog'lom ishchanlik muhitini rivojlantirish, qonuniylikni, yuksak huquqiy madaniyat va axloqiylikni ta'minlash, xodimlarda Vatanga sodiqlik ruhini va qonunlarga bo'lgan hurmatni kuchaytirish, ularni ijtimoiy, siyosiy, ruhiy va ma'naviy-ma'rifiy kamol toptirish, shuningdek, mazkur sohadagi ilmiy-ma'rifiy va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

mamlakatda va xorijda keng jamoatchilikni Vazirlik faoliyatini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar haqida muntazam ravishda xabardor qilishni ta'minlaydi hamda mavjud muammolarni hal qilish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

Vazirlik faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlarini tashkil etishda ishtirok etadi;

Vazirlik faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha bajarilayotgan ishlarning natijalarini tahlil qiladi, ularning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorlik qiladi.

7. Jamoatchilik kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun:

Vazirlik tomonidan tashkil etiladigan bo'lajak ochiq Hay'at majlislari va boshqa ommaviy tadbirlar to'g'risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda ishtirok etish;

Vazirlikning, jumladan uning hududiy bo'linmalari va tasarrufidagi tashkilotlarining binolari (xonalari) va boshqa obektlarini Vazirlik tomonidan belgilangan tartibda borib ko'rish;

Vazirlik, uning hududiy bo'linmalari va tasarrufidagi tashkilotlari rahbarlariga Jamoatchilik kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

Vazirlik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan Vazirlikning axborotlari, statistika va boshqa materiallarini belgilangan tartibda olish;

Vazirlikning qonun ijodkorligi faoliyatida, Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik va ekspertlar muhokamasini ta'minlashda ishtirok etish;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlariga Vazirlik tomonidan berilgan javoblarning sifatini tanlab olgan holda tahlil qilish;

Vazirlik xodimlarining roziligi bilan ularning uy-joy, ijtimoiy-maishiy va xizmat shart-sharoitlari bilan tanishish;

Jamoatchilik kengashi majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish huquqiga ega.

Jamoatchilik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

8. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini amalga oshirishda: jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilishi;

Vazirlik faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlarga amal qilishi;

Vazirlik va uning mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

Vazirlik va uning mansabdor shaxslari faoliyat ko'rsatishi uchun to'sqinlik qilmasligi;

fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymasligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiyligiga rioya qilishi shart.

Jamoatchilik kengashining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

3-bob. Jamoatchilik kengashining tarkibini shakllantirish va ishini tashkil etish tartibi

9. Jamoatchilik kengashining tarkibiga uning raisi, rais o'rinbosari, kotibi va a'zolari kiradi.

10. Jamoatchilik kengashi a'ziligiga, qoida tariqasida, namunali xizmat ko'rsatgan mehnat faxriylari, jamoatchilik faoliyati sohalarida katta amaliy tajribaga ega obro'-e'tiborli fuqarolar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari qabul qilinadi.

Jamoatchilik kengashi a'zolarining soni cheklanmagan.

11. Jamoatchilik kengashining tarkibi Vazirlik rahbarining qarori bilan har 3 yilda tasdiqlanadi.

12. Quyidagi holatlarda Jamoatchilik kengashining raisi, rais o'rinbosari, kotibi va a'zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin:

ular tomonidan Jamoatchilik kengashi tarkibidan chiqish to'g'risida ariza berilganda;

Jamoatchilik kengashining majlislarida muntazam ravishda ishtirok etmaganda, mazkur Nizomning 8-bandida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda;

ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda; vafot etganda, shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida ular muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb topilganda.

13. Jamoatchilik kengashining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar va unga kiritilgan o'zgartishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab 5 kun ichida Vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

14. Jamoatchilik kengashining raisi:

Jamoatchilik kengashining faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

Jamoatchilik kengashining majlislarini chaqiradi va kun tartibini belgilaydi;

Jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

Jamoatchilik kengashining ish rejasini, majlisi bayonnomasini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qiladi;

Jamoatchilik kengashi a'zolarining zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilishini muvofiqlashtiradi;

Vazirlikning rasmiy veb-saytida va boshqa resurslarda joylashtiriladigan Jamoatchilik kengashining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar tarkibi bo'yicha takliflar kiritadi va uni Vazirlik rahbari bilan kelishadi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarini bajarish masalalari yuzasidan Vazirlik rahbari bilan hamkorlik qiladi;

Jamoatchilik kengashining samarali ishini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

15. Jamoatchilik kengashining raisi bo'lmagan taqdirda, uning vakolatlari va majburiyatlarini rais o'rinbosari bajaradi.

16. Jamoatchilik kengashi raisining o'rinbosari:

rais yo'qligida Jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladi, shuningdek, Jamoatchilik kengashi faoliyatiga taalluqli murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

Jamoatchilik kengashining samarali ishlarini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

17. Jamoatchilik kengashining kotibi:

Jamoatchilik kengashining faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

Jamoatchilik kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, Vazirlik xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

kun tartibiga muvofiq Jamoatchilik kengashi majlisleri o'tkazilishini tashkil etadi;

Jamoatchilik kengashi majlisi o'tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro'yxatini Jamoatchilik kengashining raisi bilan kelishadi;

Jamoatchilik kengashining a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni Jamoatchilik kengashi majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarining ijro etilishi ustidan monitoring olib boradi va uning natijalarini Jamoatchilik kengashi majlisida ko'rib chiqish bo'yicha takliflar kiritadi;

Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning Jamoatchilik kengashi a'zolari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga jo'natilishini ta'minlaydi;

Jamoatchilik kengashining samarali ishlashini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

18. Jamoatchilik kengashining a'zolari o'z majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal qilishda o'z vakolatini boshqalarga o'tkazish huquqiga ega emas.

Jamoatchilik kengashining majlisida ishtirok etish imkoni bo'lmagan holatlarda, uning a'zosi majlis kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'z fikrini yozma shaklda yuborishi mumkin. Bunda uning fikri majlisda ko'rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

Jamoatchilik kengashining a'zolari:

o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun Vazirlik tomonidan tashkil etiladigan Hay'at majlislarida va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etadi;

Jamoatchilik kengashi ish rejalarining loyihalarini tayyorlaydi, ularni Jamoatchilik kengashida ko'rib chiqish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejaları bajarilishini ta'minlaydi;

faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qatnashadi;

Vazirlik xodimlari, ularning oila a'zolari bilan uchrashuvlar o'tkazadi va ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha takliflarni Jamoatchilik kengashiga kiritadi;

Jamoatchilik kengashining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar tayyorlaydi;

Jamoatchilik kengashining vakolatiga kiradigan masalalar bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqadi va natijalari bo'yicha tegishli hujjatlarni tayyorlaydi;

Jamoatchilik kengashining zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

19. Jamoatchilik kengashi faoliyatining asosiy masalalari uning majlisida ko'rib chiqiladi. Jamoatchilik kengashining majlisi uning ish rejaları asosida har chorakda kamida bir marta chaqiriladi.

Jamoatchilik kengashining raisi Jamoatchilik kengashi a'zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida uning navbatdan tashqari majlisini chaqirishi mumkin.

20. Jamoatchilik kengashining majlislariga boshqa davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari taklif etilishi mumkin.

21. Jamoatchilik kengashining majlisi kun tartibining loyihasi kotib tomonidan Jamoatchilik kengashi a'zolarining takliflari va Jamoatchilik kengashi raisining topshirig'i asosida shakllantiriladi.

22. Jamoatchilik kengashining majlisini uning raisi olib boradi. Rais ishtirok eta olmagan holatlarda, majlisni uning o'rinbosari olib boradi.

Jamoatchilik kengashining majlisida Vazirlik rahbari, uning o'rinbosarlari va boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

23. Jamoatchilik kengashining majlisi, unda Jamoatchilik kengashi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda, vakolatli hisoblanadi.

Majlisni o'tkazish uchun kvorum shakllanmagan taqdirda, Jamoatchilik kengashining yangi majlisi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi.

24. Jamoatchilik kengashining qarori majlisda ishtirok etayotgan Jamoatchilik kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

25. Jamoatchilik kengashining har bir a'zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. Uning fikri Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasiga majburiy tartibda qo'shib qo'yiladi.

26. Jamoatchilik kengashining majlisida qabul qilingan qaror bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va uch kun muddatda Vazirlikka, Jamoatchilik kengashi a'zolariga va manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

27. Jamoatchilik kengashining qarorini tezlik bilan qabul qilish zarurati tug'ilganda, uning raisi tashabbusi bilan qaror Jamoatchilik kengashining a'zolari bilan kelishilgan holda so'rov yo'li bilan qabul qilinishi mumkin.

Vazirlik Jamoatchilik kengashining qabul qilgan qaroriga qo'shilmagan hollarda, Jamoatchilik kengashining qarorini olgan kundan boshlab o'n kundan kechikmay unga asoslantirilgan e'tirozini yozma shaklda yuboradi.

28. Jamoatchilik kengashining kotibi kengash a'zolari ko'magida Jamoatchilik kengashi qarorlari ijrosining borishini o'rganadi va ko'rib chiqadi, zarur bo'lgan hollarda, Jamoatchilik kengashining raisiga tegishli takliflar kiritadi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

29. Jamoatchilik kengashining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash Vazirlik tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

30. Jamoatchilik kengashining faoliyati uning Nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq ekanligi Vazirlik rahbari tomonidan nazorat qilinadi.

31. Jamoatchilik kengashining va Vazirlik rahbarining Jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog'liq qarorlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2021-yil I yarim yilligi davomida o'tkaziladigan yig'ilishlarida normativ-huquqiy va idoraviy hujjatlarni muhokama qilish bo'yicha

TADBIRLAR REJASI

T/r	Loyiha nomi	Loyiha qabul qilinishi uchun asos	Muddati	Ijrosi uchun mas'ul vazirlik va idoralar	Vazirlikdan ijrosi uchun mas'ul shaxs
I. Qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlanirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinganligining tahlili					
1.	“O‘zbekiston Respublikasida savdo faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi	O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari boshchiligida 2021-yil 6-yanvar kuni o‘tkazilgan majlisning 1-son bayoni 3-bandi oltinchi xatboshi	2021-yil 1-aprel	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi	Xizmatlar sohasini rivojlanirish boshqarmasi boshlig‘i
2.	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil I yarim yillik ish rejasida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha Nazorat rejasining 251-bandi	2021-yil 20-aprel	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi,	Urbanizatsiya siyosatini yuritish departamenti direktori

	kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi			Transport vazirligi	
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021 — 2025 yillarda hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni loyihasi	O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari boshchiligida 2021-yil 6-yanvar kuni o'tkazilgan majlisning 1-son bayoni 3-bandi beshinchi xatboshi	2021-yil 1-mart	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Vazirlik va idoralar	Xizmatlar sohasini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2023-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021 — 2023-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 28-dekabrda PQ-4936-son qarori	2021-yil 1-avgust	Manfaatdor vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari	Davlat investitsiya dasturi yo'nalishi va loyihalarini shakllantirish va bajarilishini nazorat qilish boshqarmasi boshlig'i
5.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish tizimini joriy qilish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi qarori loyihasi	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 7-martdagi PQ-4913-son qarori	2021-yil 1 chorak	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi Moliya vazirligi va boshqa vazirlik va idoralar	Xususiy sektorni tahlil qilish va rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
6.	"O'zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish Konsepsiyasi" loyihasi	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2020-yil 26-martdagi PQ-4653-son qarorining 9-ilovasi 12 va 13-bandlari	2021-yil 20-mart	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Vazirlik va idoralar	Strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish hamda uzoq muddatli o'sish omillarini tahlil qilish boshqarmasi

	<p>Vazirlar Mahkamasining "Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2020-yil 19-oktabr kuni o'tkazilgan videosektor majlisining 82-son bayoni 3-bandi hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 2-noyabrda 02/1-2394-son topshirig'i</p>	<p>2021-yil I chorak</p>	<p>Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi</p>	<p>boshlig'i</p>
<p>7.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2020-yil 19-oktabr kuni o'tkazilgan videosektor majlisining 82-son bayoni 3-bandi hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 2-noyabrda 02/1-2394-son topshirig'i</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son va "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining "Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 30-iyuldagi 460-son qarori</p>	<p>2021-yil I chorak</p>	<p>Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi</p>	<p>Yuridik departament direktori o'rinbosari — Huquqiy ta'minot bo'limi boshlig'i</p>
<p>8.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Korporativ boshqaruvchi malaka attestatini berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori loyihasi</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning rahbarligida 2021-yil 21-22-yanvar kunlari Buxoro viloyatiga tashrifi davomida va Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida bergan topshiriqlari bo'yicha "Buxoro viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mavjud muammolar va ularni hal etish yuzasidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi</p>	<p>2021-yil I-mart</p>	<p>Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi,</p>	<p>To'qimachilik, farmatsevtika va boshqa sanoatlarni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i</p>
<p>9.</p>	<p>"2021-2025-yillarda Buxoro viloyatida to'qimachilik sanoatida iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan gazlama va trikotaj mato ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan Dastur" loyihasi</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning rahbarligida 2021-yil 21-22-yanvar kunlari Buxoro viloyatiga tashrifi davomida va Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida bergan topshiriqlari bo'yicha "Buxoro viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mavjud muammolar va ularni hal etish yuzasidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi</p>	<p>2021-yil I-mart</p>	<p>Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi,</p>	<p>To'qimachilik, farmatsevtika va boshqa sanoatlarni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i</p>

	4-son bayonining 35-bandi		O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari uyushmasi		
10.	<p>Vazirlikka kelib tushayotgan Jismoniy va yuridik shaxslarning iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalish bo‘yicha murojaatlari va ularga vazirlik tomonidan berilgan javoblarning sifati tahlili</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2017-yil 11-sentabrda O‘RQ-445-son Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 4-iyuldagi PQ-3837-son qarori</p>	<p>2021-yil I chorak</p>	<p>Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi</p>	<p>Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i</p>

II. Davlat organi faoliyatining ochiqqligini ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to‘g‘risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish

**Иқтисодий тараққиёт ва
камбағалликни қисқартириш вазири
Д.А.Кучкаровга**

Хурматли Джамшид Анварович,

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат органлари ҳузурида жамоатчилик кенгашлари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2018 йил 26 июлдаги ПҚ-3837-сон қарори ижросини таъминлаш мақсадида, “Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳузурида Жамоатчилик кенгашини тузиш тўғрисида”ги буйруқ лойиҳаси (кейинги ўринларда-лойиҳа) тайёрланди.

Мазкур лойиҳада иловаларга мувофиқ, Вазирлик ҳузуридаги Жамоатчилик кенгашининг таркиби, Низоми ҳамда Жамоатчилик кенгаши йиғилишларида норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва идоравий ҳужжатларни муҳокама қилиш бўйича I ярим йиллик учун тадбирлар режаси назарда тутилмоқда.

Ушбу лойиҳанинг мазмуни қуйидагилардан иборат:

Жамоатчилик кенгаши фаолиятини ташкил этиш орқали вазирликда қабул қилинаётган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда, шунингдек, давлат, тармоқ ва ҳудудий ривожлантириш дастурларида жамоатчилик манфаатлари ва жамоатчилик фикри ҳисобга олиниши, фуқароларнинг, юридик шахсларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини, жамият манфаатларини ҳимоя қилиш соҳасида қонун ҳужжатлари талаблари ижросини таъминлашга;

давлат органи зиммасига юкланган ҳамда ижтимоий ва жамоатчилик манфаатларига дахл қилувчи вазифалар ва функцияларни бажариш, давлат хизматларини кўрсатиш, ижтимоий шериклик доирасида амалга ошириладиган битимлар, шартномалар, лойиҳалар ва дастурларни рўёбга чиқариш бўйича давлат органи ва унинг мансабдор шахсларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга оширишга эришишдан иборат.

Шу билан бирга, лойиҳада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартдаги ПҚ-4653-сон қарорининг 9-бандига асосан Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва саноат вазирлигининг 2019 йил 27 мартдаги 27-сон буйруғи ўз кучини йўқотган деб ҳисобланиши акс эттирилмоқда.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, “Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳузуридаги Жамоатчилик кенгаши тузиш тўғрисида”ги буйруқ лойиҳасини имзолаш мумкинлигини билдирамыз.

Кўриб чиқиш ва тасдиқлаш учун киритилмоқда.

**Инсон ресурслари ва ходимлар
салоҳиятини ривожлантириш
департаменти директори**

Юридик департамент











А.Фазилов



М.Ф.Куйчиев

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни
қисқартириш вазирлиги ҳузуридаги
Жамоатчилик кенгаши аъзолари билан
КЕЛИШУВ ВАРАҚАСИ

- | | | | | |
|----|--|-----------------|--|--|
| 1. | Ўзбекистон
телерадиокомпанияси
бошлиғи | Миллий
бўлим | 
(имзо) | Шерзод Убайдуллаевич
Очилов |
| 2. | Қишлоқ хўжалиги вазирлиги
Озиқ-овқат маҳсулотлари
хавфсизлиги бoshқармасининг
бўлим бошлиғи | | 
(имзо) | Адиба Комилжоновна
Ахмеджоновна |
| 3. | Ўзбекистон Республикаси
Савдо-саноат палатаси раиси
ўринбосари | | 
(имзо) | Фарход Муродович
Тошпўлатов |
| 4. | Прогнозлаштириш ва
макроиқтисодий тадқиқотлар
институти | | 
(имзо) | Турсун <u>Ахмедов</u>
Мухитович ↓ |
| 5. | “Эл Эъзоз Мебел” МЧЖ
корхонаси таъсисчи | (Мб) | 
(имзо) | Абдугани Хабиорович
Касимов |
| 6. | “Журабек Лабораториес”
МЧЖ Қўшма корхонаси бўлим
бошлиғи | | 
(имзо) | Азиз Алишерович
Шарипов |
| 7. | Соғлиқни сақлаш вазирлиги
бoshқарма бошлиғи | | 
(имзо) | Ботир
Бурхониддинович
Холмуродов |
| 8. | Вазирликнинг собиқ ходими,
нафақахўр | | 
(имзо) | Мархабад Махмудовна
Якубова |